
TOSHLOQ TUMANIDA IPAK QURTI PARVARISHIGA BAG'ISHLANGAN YIG'ILISH O'TKAZILDI

Bugun Toshloq tumanida viloyat hokimi o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i K.Kavlonova, viloyat "Agropilla" MCHJ rahbari M.Qosimov hamda tuman sektor rahbarlari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.

"Arabmazor" MFY hududida joylashgan "Sadda Qayrag'och" MMTPda o'tkazilgan yig'ilishda Toshloq hamda Yozyovon tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi boshliqlari, mahallalardagi xotin-qizlar faollari hamda ipak qurti agronomlari bilan birgalikda ipak qurtini parvarishlash, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni pillachilik bilan shug'ullanishga qiziqtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Aytish mumkinki, joriy yil pilla yetishtirishga jalb etilgan kasanachilar uchun pillachilik klasterlari tomonidan barcha sharoitlar yaratib berildi. Toshloq tumanida 3 ming 405 quti ipak qurti jonlantirilib, 204 tonna pilla xomashyosi yetishtirish rejalashtirilgan. Birgina Toshloq tumanida 11700 nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan bo'lib, aholi bandligini ta'minlash, daromad topishlari uchun ko'maklashilmoqda.

Shuningdek, "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga alohida e'tibor qaratildi ularni bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar tashkil etilgan.

2024-04-27 15:57:41